

SOHIBQIRON AMIR TEMUR BARPO QILGAN FIRDAVSMONAND BOG'LAR

Bazarbayev Sharap Tadjiboyevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani 1-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998913045205

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk sohibqiron Amir Temurning barpo qilgan so'lim bog'lari haqidagi ilmiy, nazariy va tahliliy ma'lumotlar, Amir Temurning nafaqat buyuk sarkarda va ulug' hukmdor, balki mahoratli bog'bon bo'lganligi to'g'risidagi dalillar asosida yozilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, Bog'i Shimol, Bog'i Baland, Bog'i Behisht, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Konigil, Bog'i Zog'on, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Nav.

Annotation: This article is based on scientific, theoretical and analytical information about the gardens built by the great entrepreneur Amir Temur, based on evidence that Amir Temur was not only a great general and a great ruler, but also a skilled gardener.

Key words: Samarkand, Bogi North, Bogi Baland, Bogi Behisht, Bogi Chinar, Bogi Dilkusho, Konigil, Bogi Zog on, Bogi Jahannamo, Bogi Nav.

Bog' yaratish, bog'dorchilik amali insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng ulug' kashfiyotlardan biridir. Inson ibtidoiy zamonlardan bog'ni hayot va to'kinchilik ramzi sanaydi. Barcha qadimiy diniy asotirlarda jannat mangu yashnab turgan bog'ga qiyos etiladi. Shu sababdan Sharq shoirlari go'zal bog'larni va yashil-ko'kalamzor shaharlarni "jannatmonand", "firdavsmonand" deya ta'rif etadilar.

Eng qadimiy Shumer saltanatidan boshlab insoniyat sug'orish tarmoqlarini takomillashtirib borgan. Bu esa o'z navbatida bog'dorchilikni rivojlantirishga turtki bergan. Olis yulduzlar sirini kashf etishga ishtiyoqmand qadim donishmandlar tabiatni go'zallik timsoli deb bilib, undan ruhiy zavq olishga intilganlar, oxir-oqibatda nafis tabiat ijodidan qiyos olib bog'lar yaratishga tutinganlar. Miloddan avvalgi 811-781-yillarda Ashshura (Assiriya) malikasi Shamuramat – Semiramada yaratgan osma bog'lar, Misr podshosi Shaddod bunyod etgan Bog'i Eram haqidagi afsonalar hanuz-hanuzgacha ko'ngillarni hayajonga soladi.

Buyuk bobomiz Amir Temur bunyod etgan bog'lar jahon bog'dorchilik tarixida alohida o'rin egallaydi. Sohibqiron tarixini o'rganish bilan shug'ullangan barcha muarrixu-olimlar Turon Sultonining bog'dorchilik san'atidagi salohiyatini e'tirof etib, o'z asarlarida u insho etgan bog'larni ta'rifu-tasnif aylaydilar.

Firdavsmonand deb madh etilgan Samarqand tuprog'i azal-azaldan bog'lar mamlakati sanalgan. Ming yilcha burun bu tuproqqa kelgan Istahriy shunday ma'lumot yozib qoldirgan edi: "Biron tepalikka chiqib, atrofga nazar tashlaydigan bo'lsangiz, Samarqand So'g'dida, shuningdek, Samarqandning o'zida ham nigohingiz ko'kalamzorga va yoqimli joylarga tushadi. Uning yaqinida dov-

daraxtsiz tog'lar va changi fig'on urayotgan dashtlar yo'q. Samarqand So'g'di biz tilga olgan uch joy orasida eng go'zalidir, chunki u Buxoro chegarasiga qadar So'g'd (Zarafshon) daryosi bo'ylab o'ng va chap tomondan uzilmay davom etib keladi. Uning kattaligi shunchaki, ko'kalamzor va bog'lar orasidan sakkiz kun yurasan. Bu doimo suv oqib turadigan ariqlar bilan o'rab olingan yaxlit bog'lardir, o'tloqlar va dalalar o'rtasida esa hovuzlar bor. Daryoning har ikki yoqasi ko'm-ko'k daraxtlar va ekinzorlar bilan qoplangan. Yashil daraxtlar ekinlarni himoya qiladi, ekinzorlardan keyin esa chorva mollari uchun yaylovlar yastangan. Bu yerdagi har bir shahar va qishloqda qo'rg'on bo'lib, u ko'kalamzorlar orasida bamisoli suv o'zanlari bilan to'qilgan va qasrlarning jilvasi bilan bezatilgan yashil parcha libosdek yارقirab turadi. So'g'd, Alloh mamlakatlarining eng unumdor yeridir, unda eng yaxshi daraxtlar va mevalar, odamlar yashaydigan barcha maskanda bog'lar, hovuzlar va oqar suvlar bor. Oqar suvli arig'i bo'lmagan ko'cha yoki uy kamdan-kam uchraydi".

Amir Temur zamonida Zarafshon vohasi Istahriy ta'riflagan go'zalligini saqlab qolgan edi. Sohibqiron faxr bilan aytar ekanki: "Mening bir bog'im borki, u Buxorodan Samarqandgachadir". Yana aytar ekanlarki: "Shoh bo'lsang-da, bog' yarat, gado bo'lsang-da bog' yarat, bir kuni mevasidan totarsan". Qudratli saltanat poytaxti tevaragida Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bog'lar xususida muarrix Abu Tohirxo'ja Samarqandiy shunday yozadi: "Samarqandda Amir Temur Ko'ragon soldirgan bog'larkim, Eram gulistoni rashk qilar darajada, yettita ekan:

Birinchisi – Bog'i Shimol – Samarqand shimolida. Devori Qiyomat ichida. Ikkinchisi – Bog'i Baland. Uchinchisi – Bog'i Behisht. To'rtinchisi – Bog'i Chinor. Bu ikki bog' shaharning kunchiqar tomonida. Beshinchisi – Bog'i Dilkusho bo'lib, Konigilning janub tomonida. Konigil Ko'hak daryosining yoqasida, Samarqandning eng go'zal va chiroylik yeridir. Oltinchisi – Bog'i Zog'on – Shovdor tumanining shimol tomonida voqedir. Yettinchisi – Bog'i Jahonnamo – Anhor tumanida bo'lib, tog' etagiga yaqin yerda, Samarqandning janubida bunyod qilingandir".

Biz Abu Tohirxo'ja hazrat Sohibqiron tiklagan bog'larning hammasini sanamagani uchun sanoqda davom etamiz: Sakkizinchi bog'ning nomi Bog'i Nav. To'qqizinchisi – Bog'i Bo'ldu. Bu bog' taxminan Bog'i Dilkushoga yaqin yerda joylashgan. O'ninchisi – Bog'i Naqshijahon – Cho'ponota tepaligining janubiy etaklarida bo'lgan. Tadqiqotchilar bu bog'ni Amir Temur bino etgan dastlabki bog'lardan biridir deb hisoblaydilar. Bobur mirzoning yozishicha, bog' Obi Rahmat arig'i yoqasida joylashgan. O'n birinchisi Bog'i Davlatoboddir. U Samarqandning janubida, Termizga ketish yo'lining chap tomonida, Bog'i Dilkusho bilan Bog'i Jahonnamo oralig'ida barpo etilgan. Yana bir hujjatga ko'ra, Darg'om arig'i

yoqasida bo'lgan. O'n ikkinchi bog' Sohibqiron zamonida amirzoda Shohruh sharafiga yoki mirzoning o'zi tomonidan tiklangan bog' bo'lib, u kitoblarda "Bog'i amirzodayi Shohruh" nomi bilan tilga olinadi. O'n uchinchi – Bog'i Maydon. O'n to'rtinchisi – Bog'cha. O'n beshinchisi – Gulbog' yoxud Taxtiqoracha bog'i.

1. BOG'I SHIMOL. Bu bog' xalq orasida Bog'ishamol nomi bilan mashhur bo'lgan. U 1397-yili insho etilgan. Muarrir Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha, bu manzil bog' asos bo'lmasdan oldin ham ko'kalamzor joy bo'lgan. Muarrir yozadi: "Hazrati Sohibqiron obod Samarqandning shimoliy tomonida barpo etgani Bog'i Shimol nomi bilan mashhur boqqa ko'chib o'tib, jahon ahli sig'gudek ulkan saroparda (shohona chodir) qurdirdi. Uning darvozasi oldidagi chodir (ko'ndalon) hamda podshoh qabulxonasi (borgoh) bazmlar uchun tikilgan katta va kichik chodirlar ko'kka bo'y cho'zib, oyga tekkudek tuyulardi. Bu bog'i Eram yanglig' orom maskani jannatning bazm saroyi hasad qiladigan darajada orasta va salobatli qilib bezatdilar..."

2. BOG'I BEHISHT – Samarqandning g'arbiy tarafida malika Tuman og'o sharafiga 1378-yilda insho etilgan. Bu bog' Bog'i Shimolning janubi-g'arbida joylashgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog'dagi saroy atrofini suv bilan to'ldirilgan xandaq o'ragan bo'lib, bir necha ko'prik saroy bilan bog'ni o'zaro bog'lab turgan. G'oyat ko'rkam bog' saroyi ataylab ko'tarilgan dasti tepalik ustida Tabrizdan keltirilgan oq marmardan tiklangan.

Bog'i Behishtning bir tomonida hayvonot bog'chasi – qo'riqxona bo'lib, undagi jonivorlar qafaslarda emas, atrofi o'ralgan maydonchalarda erkin holda saqlangan. Shuning uchun bir qator G'arb tadqiqotchilari Amir Temurni ilk qo'riqxona asoschisi deb hisoblaydilar.

3. BOG'I BALAND – shaharning shimolidagi Cho'ponota tepaligi yonbag'rida barpo etilgan bog'. U Amir Temurning eng go'zal bog'laridan sanalib, bog'ni yaratishda Eron, Iroq, Ozarbayjon va boshqa zabt etilgan o'lkalardan keltirilgan usta me'morlar qatnashgan. Bog'dagi Tabriz marmari bilan tiklangan saroy binosi uchta katta xonadon iborat bo'lib, unda qimmatbaho buyumlar, nodir san'at asarlari saqlangan. Bu bog' Sohibqironning suyukli nabirasi, Mironshohning qizi Og'abegimga atab qurilgan.

4. BOG'I DULKUSHO – Samarqand sharqidagi bog'. Shahardan taxminan olti chaqirim masofada, Panjakent yo'lining o'ng tomonida bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Bog'i Dilkushoni bino qilish davomida oldindan mavjud bo'lgan o'n ikkita bog' birlashtirilib mukammallashtirilgan. Bog' qurilishi 1396-yilda boshlangan. Bog'da gumbaz shaklida tiklangan qasr va uning uch tomonida minoralar yuksalib turgan. 1398 -yil bahorida – Hind yurishi arafasida Amir Temur

shu yangi bog‘da mislsiz tantanalar o‘tkazib, amir Xizrxo‘ja qizi – To‘kalxonimga uylangan va bog‘dagi qasrni yosh malikaga atagan.

5. BOG‘I CHINOR – Samarqand janubida, Darg‘om arig‘i yoqasida bino etilgan bog‘. U yerda chinorlar haddan ziyod ko‘p bo‘lgani sababidan “Bog‘i Chinor” deb atalgan. Bu bog‘ o‘rni bo‘lgan va keyinchalik Xoja Kafshar nomini olgan manzilda hozir ham chinorlar ko‘p. (“Samariya”dan: “Xoja Kafshar shaharning janubiy tomonida, bir toshning uchdan bir ulushi (to‘rt ming qadam) chamasi oldindadir”).

6. BOG‘I ZOG‘ON – Samarqandning sharqiy tomonida, shahardan taxminan 20 chaqirim masofada, Ko‘chayi Xiyobon, ya‘ni shaharning Xiyobon mavzesiga olib boradigan yo‘l ustida, “Samariya” muallifi yozganidek, “Shovdor tumanining shimol tomonida” bo‘lgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Bog‘i Zog‘on qishlog‘i mavjud.

7. BOG‘I NAV – Samarqand janubida Lolazor qishlog‘i yaqinida 1404-yil barpo etilgan bog‘. Bog‘ Amir Temurning barcha bog‘lari kabi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, baland devor bilan o‘ralgan. Bog‘ning har burchagida minoralar qad tiklagan. O‘rtasidagi gumbaznamo qasr qurilgan, uning oldida katta hovuz ham bo‘lgan.

8. BOG‘I JAHONNAMO – Samarqand janubidagi Taxtiqoracha devoniga yaqin, shahardan 24-25 chaqirim uzoqdagi Qoratepa qishlog‘ida bino qilingan bog‘. Bog‘ning yonida katta qal‘a ham bo‘lgan. Bog‘ va qal‘a Amir Temur harbiy yurishlar arafasida va jangdan qaytishda hordiq oladigan maskan hisoblangan. Ayrim tadqiqotchilarning yozishicha, Sohibqiron barpo qilgan bog‘lardan yolg‘iz Bog‘i Jahonnamo yo‘qdan bor etilgan, qolgan bog‘lar esa asosan mavjudlari o‘rnida ta‘mir va kengaytirish yo‘sunida bunyod etilgan. “Zafarnoma” muallifi bog‘dagi saroy 1398-yil qurilgan deb ma‘lumot beradi. Muarrixlarning mubolag‘asiga ko‘ra, bog‘ shu qadar ulkan ekanki, u yerda bir ot yo‘qolib qolib, olti oydan keyin topilgan ekan.

9. GULBOG‘ – Samarqandning janub tomonida, Taxti Qoracha dovoni yaqinidagi bog‘. Darhaqiqat, bog‘ni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Klavixo bog‘ni shunday tasvirlaydi: “Bog‘ning atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan bo‘lib, devor aylanasi to‘la bir liga (liga – ispancha uzunik o‘lchovi bo‘lib, 5572 metrga to‘g‘ri keladi) kelar edi. Bog‘da po‘rtahol (apelsin) va limudan tortib, har xil mevali daraxtlar bor edi. Bog‘da oltita hovuz bo‘lishiga qaramay, bog‘ni kesib o‘tgan anhor oqib turadi. Hovuzlarning biridan ikkinchisiga baland va katta soyali daraxtlardan bamisoli yo‘l solingan. Bu yashil yo‘llar o‘rtasidan balandlikka tomon ko‘tarilgan xuddi shunday so‘qmoqlar butun bog‘ bo‘ylab o‘tgan. Xullas, bu yo‘llardan yurib, butun bog‘ni tomosha qilish mumkin edi...”

10. BOG‘I BO‘LDU – Samarqand sharqida barpo bo‘lgan bog‘. Bog‘ nomi xususida fikr yuritganda aytish joizki, “Bo‘ldu” kalimasini ayrimlar “kamolotga yetgan, yetuk, kam-ko‘stsiz”, boshqalar esa “farovonlik, mo‘lchilik” ma’nosiga ega deb ko‘rsatadilar. V.Radlovning turk shevalari lug‘atida bu so‘z “badavlat” ma’nosini bildiradi deb qayd etilgan. Shunga ko‘ra, Bog‘i Bo‘ldu “to‘kin bog‘” ma’nosiga egadir. Afsonalarning birida aytilishicha, Bog‘i Bo‘ldu darvozalari peshtog‘iga o‘rnatilgan marmartosh kechasi o‘zidan yog‘du taratib, atrofni yoritib turar ekan.

11. BOG‘I NAQSHI JAHON – Cho‘ponota tepaligining janubiy etaklarida bunyod etilgan bog‘. Ayrim tadqiqotchilar Bog‘i Naqshi Jahon Amir Temur qurdirgan dastlabki bog‘larning biri, deb hisoblaydilar. “Naqshi Jahon” so‘zi “dunyo bezagi” ma’nosini bildiradi.

12. BOG‘I DAVLATOBOD – Samarqand janubida, Termiz yo‘lining yoqasida, Bog‘i Dilkusho bilan Bog‘i Jahonnamo oralig‘ida barpo etilgan bog‘. Temuriylar davriga oid vaqf hujjatlariga ko‘ra, bog‘ Darg‘om arig‘i bilan Shovdor arig‘i yaqinida bo‘lgan. Harbiy yurishlardan qaytgan jahongir shu bog‘da tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan.

13. BOG‘CHA – Samarqand shahrining ichida, amirzoda Muhammad Sulton madrasasi va dahmasi (bu yer Go‘ri Mir deb ataladi) yonida barpo etilgan kichik bog‘.

14. BOG‘I MAYDON – Samarqand shimolida, Afrosiyob bilan Cho‘ponota (Ko‘hak) tepaliklari oralig‘ida barpo etilgan bog‘. Bu bog‘ni Ulug‘bek mirzo tiklagan saroy nomi bilan Bog‘i Chilsutun deb ham atashgan.

Shuningdek, Amir Temur zamonida Sohibqiron farzandlari, nabiralari va saltanatning nufuzli amirlari tomonidan bunyod etilgan bog‘lar ham mavjud bo‘lib, ular qator tarixiy solnomalarda qayd etilgan. Keyinchalik buyuk bog‘bon – Amir Temurning avlodlari o‘z otalari va bobolaridan ibrat olib, Samarqanddagina emas, Hirotda (Shohruh, Husayn Boyqaro), Hindistonda (Bobur mirzo va boburiylar) ko‘plab ajoyib va beqiyos bog‘lar yaratdilar. Bu an‘ana bugun ham barhayot. Samarqandda Amir Temur bog‘larining tiklanayotgani, Toshkentda Milliy bog‘ va boshqa yashil chamanzorlarning, Andijonda Bobur bog‘ining bunyod etilgani fikrimiz dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Amir Temur bog‘lari" *O‘zME. A-harfi* Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur_bog%CA%BBlari
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xurshid-davron-amir-temur-boglari-temur-boglari-temurnoma-videofilmidan-9-qism.html>

4. <https://ilmlar.uz/samarqanddagi-amir-temur-boglari/>
5. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/amir-temur-boglari/>
6. <https://darakchi.uz/oz/106202>

